



ZEBO MIRZO SHE'RLARIDA LIRIK SUBYEKT MASALASI

Xabibullayeva Nigora

Annotatsiya: *Adabiyot deb ataluvchi tog'ning bir cho'qqisi bo'lmish she 'riyatning sehri, jozibasi shoir va shoirlar hislarida jarang sochadi. So'zning qudrati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *adabiyot, san'at, shoir, badiiy tafakkur, estetik ideal, obraz, so'z sehri, lirik qahramon*

Inson paydo bo'libdiki, adabiyot unga hamroh. Inson esa so'zga, uning sehriga oshiq. Aynan so'z orqali ko'ngil kuylarini juda go'zal, nafis tarzda ifodalaydilar, chizadilar. Adabiyot olamida shunday bir san'at, shaffoq buloq borki, ko'ngil undan suv ichadi, unda insonning shodlik va quvonchi, orzu va armonlari, ichki kechinmalari butun qalbi tasvirlanadi. Bu -she'riyat. She'rni tuyg'u surati deydi,- Ulug'bek Hamdam. Faqat bu surat ongimizda go'yoki tirik inson kabi gavdalanadi. She'rda shoir hissiyotini, uslubini, ichki „men“ini , ovozini ramziy tarzda, badiiy obrazlar orqali namoyon qiladi (Badiiy obraz borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan shaklidir). Agar shunday bo'lsa, shoirlar kim? Demak, ularni qalb rassomlar, tuyg'ular musavviri deb atasak to'g'ri bo'ladi. Aslida to'rtta so'zni kelishtirib, qofiyalashtirib aytishning o'zi mushkul. Buni faqat yuksak istedod egalarigina eplay oladilar, so'z yukini ko'tara oladilar. Shoir so'zi orqali seni o'ylantirsa, o'zgartirsa, qalbingni uyg'otsa va nimadir bera olasa, demak bu uning kuchi. Darhaqiqat she'riyatga, adabiyotga inson doim talpinadi, unda o'zini, o'zligini topadi. Qalbingizga yoqqan she'rni o'qiganingizda ohang bo'lib qalbingizga oqib kiradi, u yerda o'z surati, jilvagar ranglari bilan sizni maftun qiladi go'yo. Shoir kechinmalarini lirik qahramon tilidan tinglaganda o'quvchi qalbidagi hech kim ko'rmagan „men“ uyg'onadi. Inson kechinmalarini ko'z bilan ko'rolmaysiz, qo'l bilan ushlolmaysiz. Faqat qalb bilan his qilasiz. Aynan shoir shu ko'rinmas tuyg'ularni oq qog'ozga so'z bo'yog'i orqali tasvirlaydilar. Shu sabab ularni yuqorida tuyg'ular musavviri deb atadim.

Shoirlar so'zga zeb beradi, jilvalantiradi. Shu jilva ko'ngillarni ravshanlashtiradi. Shoirmi she'rlari orqali zohiran emas, botinan taniysiz. Aynan shu tanishlik hayolga ko'chadi. Shoir bilan hayoliy suhbatlar quriladi, savollar beriladi.

Bugungi davr she'riyatida badiiy konsepsiya masalalariga toxtalishdan avval konsepsiya va badiiy konsepsiya o'zi nima? degan savolga javob beramiz.

Konsepsiya (lot. conceptio- , tizim)- biror bir sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; adabiyotda- biror asarning asosiy g'oyasi.

Badiiy konsepsiya- badiiy asar mohiyatini, ijodkorning "meni"ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat



e'tibori bilan asar o'z konsepsiyasiga ko'ra muallifning badiiy- estetik olamiga tegishli bo'ladi.

Zebo Mirzo 1964-yilning 15-dekabrda Qashqadaryo viloyating Kitob tumani Beshtarak qishlog'ida tug'ildi. Toshkent Davlat universitetining o'zbek filologiyasida tahsil oldi(1982-1987)[1].Toshkent Davlat san'at instituti kata labaranti, o'qituvchisi(1987-1991),O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining Xalq ijodiyoti va madaniy- ma'rifiy ishlar respublika markazi muharriri(1991-1995), „Yozuvchi“nashriyoti bo'limi mudiri (1995-1999), „Yoshlar“ radiokanali kata muharriri (1999-2006) vazifalarida xizmat qildi. 2006-yildan „O'zbekiston“telekanali katta muharriri sifatida faoliyat yuritadi[2].

Zebo Mirzoning „Tun malikasi“ nomli ilk she'riy to'plami 1990-yilda nashr etildi. Shundan keyin shoiraning „Ajr“(1997), „Nur kukunlari“ (2004), „Ishq“ (2012) kabi she'riy kitoblari dunyoga keldi. Zebo Mirzo, shuningdek, „Rangin dunyo“, „Ijod maktabi“, "Siz va Siz uchun "kabi tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodi haqidagi maaniy-ma'rifiy mavzudagi bir qator turkum ko'rsatuvlar muallifi hamdir.

Zebo Mirzo ijodiga yuzlanadigan bo'lsak, uning she'rlarida ham haqiqiy o'zbek ayollariga xos bo'lgan vafo, sadoqat, oqilalik tuyg'ularining tarannumini, vatanga bo'lgan muhabbat, onaga bo'lgan mehr, do'stlik, oilaga bo'lgan e'tibor, tabiat mo'jizalaridan hayratlanish, zavqlanish kabi tuyg'u va kechinmalarnig ta'sirchan tasviriga guvoh bo'lamiz.

ONAMGA

Oq sochlari oppoq tun uning,
Umri halol ishqqa bayroqdir.
Ox, yuzlari dunyoyi dunning
Go'zalidan chiroyliroqdir.

Shoiraning yuqorida keltirilgan she'ri juda ham ta'sirchan hamda mazmunli. She'rda ona siymosi, uning fidokorligi, farzandiga bo'lgan muhabbati, farzandning onasining xizmatida bo'la olmaganligidan afsus chekishi, kabi g'oyalar ilgari surilgan. Shoiraning badiiy-estetik g'oyalari o'ziga xos tarzda she'rda aks etgan, hamda chuqur mazmun kasb etgan.Shoiraning

"Sahrolar bag'rida adashgan..." she'rida esa ayol muhabbatining o'ziga xosligi shundaki, u naqadar kuchli, naqadar o'tli bo'lmasin, otashin tuyg'ular haqida ochiq aytilmaydi. Ayol qalbi qanchalar nozik bo'lmasin, olovli hislarni berkitishga qodir. Ayol hech kimga aytmagan so'zlarini, ko'ngil sirlarini she'r deb atalmish mo'jiza qatiga singdiribgina yengil tortadi. Mazkur she'r ham ayol muhabbatining samimiy iqrordir.

"Nigohingni o'pib uyg'onar olam..." she'ri oshiq uchun ma'shuq eng yuksak xilqatdir. Oshiq o'zi ko'ngil qo'ygan insonini xayolan muhabbatining yuksak cho'qqisiga olib chiqib qo'yib, o'zi asta uing poyiga yiqilib, izlarini ko'zlariga surtadi. Chinakam oshiq ma'shuqning visoliga yetishni o'ylamaydi, negaki u o'zini bu baxtga munosib emas



deb biladi. U uchun shunday buyuk zotning - Yorning bu dunyoda borligining o'zi buyuk baxt. Ushbu she'r ham ana shunday chinakam oshiqning ko'ngil oynasidir.

"Iztirob" she'rida buyuk bir muhabbat tarixi yoritilgan. Ayol muhabbati... Qalbidagi ishq to'fonini, yuragidagi ishq otashini barchadan yashirgan, hatto yorning o'zidan ham pinhon tutgan ayolning matonat va sabotga yo'g'rilgan pokiza tuyg'ulari bilan tanishar ekansiz, beixtiyor muallif qalbiga qalban yaqinlik tuyasiz. Mayda tashvishlarga ko'milib yashayotganimiz bu dunyoda ana shunday buyuk dardlar yukini ko'tarib jimgina yashayotgan odamlar borligiga iqrar bo'lasiz.

Xulosa o'rnida shunday deyish mumkinki, shoira ijodida oshiq- ma'shuq masalasi, sevgi- muhabbat uning ma'naviy olami ko'lami natijasidir. Ilohiy ishq hamda majoziy ishq talqinlari shoira she'rlarida o'z ifodasini yaqqol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „O‘zbek adiblari“ (S.Miraliyeva,R.Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,2016) kitobidan.
2. "Konsepsiya asoslari" O'zME Ikkinchi jild. Toshkent.2000.
3. "Hozirgi adabiy jarayonda badiiy konsepsiya" Ukim, bu nima" Qomus